



O'ZBEKISTONDA MOLIVAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARIGA O'TISHNING DOLZARBLIGI VA AHAMIYATI

doi doi.org/10.55439/ECED/vol24_iss3/a23

*Aralov Sobir Javli o'g'li –
Bank-moliya Akademiyasi Buxgalteriya hisobi va
audit kafedrasida doktoranti*

Annotatsiya. Ushbu maqolada bugungi kunda dunyo iqtisodiyotining integratsiyalashuvi fonida O'zbekistonda Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga (MHXS) o'tishning dolzarbligi va ahamiyati xususida so'z yuritilgan. Bunda xorij tajribasiga asoslangan holda, milliy hisob tizimimizni moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida tashkil etishning ijobiy jihatlari va afzalliklari, shuningdek, MHXSga o'tishning oqibatlarini inobatga olib, istiqbolda amalga oshirilishi zarur bo'lgan yo'nalishlar bo'yicha amaliy tavsiyalar shakllantirilgan.

Kalit so'zlar: moliyaviy hisobotning xalqaro standarti, buxgalteriya hisobining milliy standarti, moliyaviy hisobot, moliyaviy tahlil, sifatli moliyaviy axborot, iqtisodiy samaradorlik, investitsion muhit, kapital bozori.

АКТУАЛЬНОСТЬ И ВАЖНОСТЬ ПЕРЕХОДА НА МЕЖДУНАРОДНЫЕ СТАНДАРТЫ ФИНАНСОВОЙ ОТЧЕТНОСТИ В УЗБЕКИСТАНЕ

*Аралов Собир Джавли угли -
Академия банковского дела и финансов докторант
кафедры Бухгалтерского учета и аудита*

Абстрактный. В данной статье говорится об актуальности и важности перехода на Международные стандарты финансовой отчетности (МСФО) в Узбекистане сегодня на фоне интеграции мировой экономики. Основываясь на зарубежном опыте, принимая во внимание положительные стороны и преимущества организации нашей национальной системы бухгалтерского учета на основе международных стандартов финансовой отчетности, а также последствия перехода на МСФО, сформулированы практические рекомендации по направлениям, которые необходимо реализовать в будущем.

Ключевые слова: Международный стандарт финансовой отчетности, национальный стандарт бухгалтерского учета, финансовая отчетность, финансовый анализ, качественная финансовая информация, экономическая эффективность, инвестиционная среда, рынок капитала.

RELEVANCE AND IMPORTANCE OF TRANSITION TO INTERNATIONAL FINANCIAL REPORTING STANDARDS IN UZBEKISTAN

*Aralov Sabir Javli ugli –
Academy of Banking and Finance doctoral student
of the department of accounting and auditing*

Abstract. This article describes the relevance and importance of the transition of international financial reporting standards (IFRS) in Uzbekistan, today against the backdrop of the integration of the world economy. Based on foreign experience, taking into account the positive aspects and advantages of organizing our national accounting system on the basis of international financial reporting standards, as well as the consequences of shifting to IFRS, practical recommendations have been formulated in areas that need to be implemented in the future.

Key words: International financial reporting standard, national accounting standard, financial reporting, financial analysis, qualitative financial information, economic efficiency, investment environment, capital market.

Kirish. Moliyaviy hisobotning maqsadi korxonaning moliyaviy holati, faoliyati va moliyaviy holatidagi o'zgarishlar to'g'risidagi ma'lumotlarni taqdim etishdan iborat bo'lib, u iqtisodiy qarorlar qabul qilishda keng foydalanuvchilarga, ayniqsa butun dunyo bo'ylab diversifikatsiya va investitsiya imkoniyatlarini qidirayotgan investorlar uchun foydalidir. Asosiy sifat ko'rsatkichlari va tegishli buxgalteriya standartlarini qo'llash, odatda, adolatli taqdimotni ta'minlaydigan moliyaviy hisobotlarga olib keladi. Biroq, buxgalteriya hisobi standartlari bir mamlakatdan boshqasiga farq qiladi, bu esa mamlakatlar bo'ylab moliyaviy hisobot sifatining farqlanishiga olib keladi va

moliyaviy ma'lumotlarning solishtirish va shaffofligini qiyinlashtiradi. Axborotni kamaytiradigan buxgalteriya standartlarini uyg'unlashtirish zarurati manfaatdor tomonlar va kompaniyalar o'rtasidagi nosimetriklik MHXSni ishlab chiqishni talab qildi. Shu nuqtayi nazardan, bugungi kunda kompaniyalarning xalqaro bozorlarga chiqishi, shuningdek, salohiyatli investorlarni jalb qilishda MHXSga muvofiq moliyaviy hisobot tayyorlash muhim ahamiyat kasb etadi va u hayotiy zaruratga aylanib bormoqda.

MHXSni qabul qilish va unga muvofiq hisobot taqdim etish global bozorda yagona moliyaviy axborot almashish muhitini yaratadi. Bu jarayon o'z nav-

batida, axborot shaffofligi, hisobdorlik va iqtisodiy samaradorlikning oshishiga xizmat qiladi. Shuningdek, MHXS qo'llanishi bozor likvidligi yaxshilanishi, kapital bozorlarining rivojlanishi, qimmatli qog'ozlar bozorlarida savdolar ko'lamining kengayishi, xorijiy investitsiyalarning milliy bozorga kirib kelishi va investorlarni himoya qilishning takomillashishiga olib keladi. Shuni ta'kidlab o'tish joizki, ushbu ijobiy natijalarga erishish uchun MHXSni milliy bozorda samarali tatbiq etish chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim bo'ladi.

Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS)ning tatbiq etilishi esa hisobning yagona usullarini qo'llash orqali kompaniyalarni ichki boshqaruv tizimini takomillashtirish, manfaatdor tomonlarga korxonaning moliyaviy holati to'g'risida ma'lumot berish va kompaniyaning raqobatbardoshligini oshirish imkonini beradi.

Adabiyotlar sharhi. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari, ularning qo'llanilishi va jahon miqyosida tan olinishi hamda ushbu standartlarga o'tishning dolzarbligi va ahamiyati borasidan iqtisodchi olimlar va mutaxassislar tomonidan keltirilgan fikr-mulohazalari va tadqiqot natijalariga to'xtalib o'tiladi.

Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS) – bugungi kunda jahon mamlakatlarida qo'llanilayotgan buxgalteriya hisobining xalqaro etaloni hisoblanadi.[5] Hozirgi kunda 60 dan ortiq shunday standartlar ishlab chiqilgan va amaliyotga joriy etilgan. Fikrimizcha, 90 ga yaqin davlat Xalqaro Buxgalteriya Standartlari Kengashi tomonidan e'lon qilingan MXHSlarga to'liq mosligini va audit hisobotlarida bunday muvofiqlikni tan olishi, taxminan 120 davlat va hisobot beruvchi yurisdiksiyalar mahalliy listing kompaniyalari uchun MXHSlar bo'yicha hisobotlarni ishlab chiqishiga ruxsat berishi yoki talab qilishi[13] bu mulohazani to'la qonli oqlaydi.

Bugungi kunda ochiq moliya bozorlariga talab har qachongidan ham kuchliroq. Globallashuv buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotni solishtirish va uyg'unlashtirishni birinchi o'ringa qo'yadi[6]. Shu sababli, ko'plab davlatlar moliyaviy hisobning xalqaro standartlarini joriy etishda juda ko'plab o'ziga xos yo'llarni bosib o'tgan va endilikda qo'llashni boshlayotgan davlatlar ham bunga intilmoqda.

Emmanuel T. De Jorj ta'rif berishicha, MHXS ning asosiy maqsadi – butun dunyo bo'ylab yagona standartlar orqali moliyaviy hisobotlarning solishtirilishini yaxshilash va yuqori sifatli buxgalteriya hisobini rag'batlantirish ekanligidir [7]. Shuningdek, MHXS maqsadi, dunyodagi barcha mamlakatlarning moliyaviy hisobotlarining eng yaxshi jihatlari inobatga olgan holda, ularni takomillashtirib hamma uchun maqbul bo'lgan moliyaviy hisobotlarning uni-

versal standartlarini yaratish va hayotga joriy qilish yo'llarini izlab topishdir.

Yason Gordon ta'kidlaganidek, MHXS xalqaro darajada tushunarli bo'lgan va taqqoslanadigan biznes masalalari uchun umumiy global moliyaviy tildir[8]. U shuningdek, MHXSni butun dunyo bo'ylab moslashtirishning quyidagi afzalliklarini sanab o'tdi: aksiyadorlar va tartibga soluvchilar uchun sifatli moliyaviy ma'lumotlar, yaxshilangan taqqoslanuvchanlik, natijalarning shaffofligi oshishi, transchegaraviy listingni himoya qilish qobiliyati oshishi, global operatsiyalarni yaxshiroq boshqarish va kapital xarajatlarni kamaytirish.

Shu sababli ham bugungi globallashuv jarayonida moliya tashkilotlari, yirik korporatsiyalar va hatto mamlakatlar miqyosida MHXSlar tan olinib, hisobot tizimini yuritishda tayanib kelinmoqda. Xususan, O'zbekistonda ham bu jarayonda faol ravishda iqtisodiy islohotlar olib borilmoqda.

Ma'lumotlarga ko'ra, mamlakat darajasida MHXSni qabul qilish bo'yicha o'tkazilgan turli tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, MHXSni qabul qilgan mamlakatlar bo'ylab to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimining o'sishini boshdan kechirgan [9].

Xususan, Buyuk Britaniya, Italiya va Germaniya kabi mamlakatlarda olib borilgan tadqiqotlar ko'ra, MHXSni joriy etish buxgalteriya hisobi ma'lumotlarining sifati yaxshilaganligi aniqlangan [10]. Bu shuni anglatadiki, MHXS asosida tayyorlangan moliyaviy hisobotlar yuqori sifatli, shaffof va taqqoslanadigan moliyaviy ma'lumotlarni taqdim etadi. Bu xalqaro tashkilotlar uchun foydalidir, chunki u investorlar, kreditorlar, moliyaviy Tahlilchilar va moliyaviy hisobotlarning boshqa foydalanuvchilariga o'z investitsiyalari samaradorligini har tomonlama baholashga yordam beradi [11].

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur ilmiy maqolada moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha jahon tajribasini o'rganish va bu orqali O'zbekistonda MHXSni milliy hisob tizimida qo'llashning oqibatlarini, ijobiy jihatlari, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolar va erishiladigan afzalliklarni o'rganish bo'yicha vazifalar belgilab olindi. Tadqiqot jarayonida empirik tadqiqotni kuzatish, induksiya, deduksiya, jamlash va ma'lumotlar manbalari o'rta-sidagi aloqalarni aniqlash usullaridan va nazariy tadqiqotning analiz va sintez usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. MHXSni tatbiq etish bo'yicha Yevropa davlatlarining tajribasini o'rganish va ushbu jarayondagi muammolar va istiqbollarni adolatli baholash O'zbekistondagi kompaniyalarning MHXSga muvofiq buxgalteriya hisobini yuritish va moliyaviy hisobot tuzish jarayoniga o'tish davrida katta imkoniyat hisoblanadi.

O'zbekistonda bunday o'tish davri ancha yillardan beri davom etib kelayotganligini alohida aytib o'tish kerak. Ammo, bu davrda jahon tajribasini

o'rganish va MHXSga muvofiq buxgalteriya hisobini yuritish va moliyaviy hisobot tuzishga o'tishning muammolari va istiqbollarini baholash juda sekinlik bilan amalga oshirilmogda. Xususan, MHXSga o'tish bo'yicha islohotlarning boshlanishida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010- yil 26-noyabrda PQ-1438-sonli "2011-2015-yillarda respublika moliya-bank tizimini yanada isloh qilish va barqarorligini oshirish hamda yuqori xalqaro reyting ko'rsatkichlariga erishishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risida"gi qarorining qabul qilinishi bo'ldi. Mazkur qaror bilan banklar tomonidan MHXS asosida hisobotlar tayyorlashga o'tish va xalqaro kredit reytinglarini olishi bo'yicha ustuvor yo'nalishlar belgilab berildi [2].

Shuningdek, Respublikamizda ilk bor 2013-yilda O'zbekiston buxgalterlari va auditorlari milliy assotsiatsiyasi (O'zBAMA) tegishli davlat organlari va xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikda MHXS standartlarini o'zbek tiliga tarjima qildi. O'zbekiston auditorlar palatasi, Moliya vazirligi, Markaziy bank va yirik auditorlik tashkilotlari "Ko'rib chiqish komissiyasi" a'zolari sifatida tarjima jarayonida qatnashdi. 2013-yildagi MHXS hujjatlari tarjimasi yakunlangan bo'lsa-da, keyinchalik ular MHXS fondi tomonidan kiritilgan doimiy o'zgarishlar bo'yicha yangilab borilmadi. Bunga asosiy sabab sifatida ularga talab va ehtiyojning pastligi hamda MHXS hujjatlarining qonun hujjatlari bilan tan olinmaganligini ko'rsatish mumkin.

Keyinroq, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 24-apreldagi PF-4720-sonli "Aksiyadorlik jamiyatlarida zamonaviy korporativ boshqaruv uslublarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoniga asosan 2015-2018-yillarda barcha aksiyadorlik jamiyatlari yillik moliyaviy hisobotni nashr etishi va audit hamda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga muvofiq tashqi auditni o'tkazishi belgilangan edi [3]. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, o'sha davrda mamlakatimizda faoliyat olib borayotgan hisobchi, soliq va moliya mutaxassislarining ko'pchilik qismi MHXS bo'yicha yetarli bilimga ega emas edi. Buning ustiga MHXS hujjatlari o'zbek tilida qo'llash uchun doimiy yangilangan versiyasi taqdim etilmadi. Natijada, ko'pchilik kompaniyalar MHXS asosida moliyaviy hisobotni tayyorlash uchun auditorlar va boshqa tashqi ekspertlarni yollashga majbur bo'ldi. Buning oqibatida o'tgan 2015-2018 yillarda mamlakatimizda MHXS larni amaliy qo'llash tajribasi paydo bo'lmadi.

Bu orada, qonun hujjatlarida biroz ijobiy o'zgarishlar kuzatildi. Masalan, 2016-yil 13-aprelda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 404-sonli qaroriga asosan yangi tahrirdagi "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonunga tegishli moddalar va bandlar kiritildi. Xususan, "Buxgalteriya hisobi standartlari" nomli 10-modda kiritildi. Unga ko'ra, Buxgalteriya hisobi subyektlari moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini qonun hujjatlarida belgilangan tartib-

da qo'llashi belgilab berildi. Bundan tashqari, Qonunning 22-moddasida xalqaro standartlar bo'yicha tuziladigan moliyaviy hisobotga doir talablar moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari bo'yicha belgilanishi qayd etilgan edi [1].

Shunga qaramay, MHXSga muvofiq buxgalteriya hisobini yuritish va moliyaviy hisobot tuzish amaliyotini o'rganish va qo'llashga doir say harakatlari to'xtab qolmadi. Prezidentimizning 2020- yil 24-fevraldagi "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori MHXSga o'tishning yangi bosqichini boshlab berdi. Ushbu qarorga muvofiq, aksiyadorlik jamiyatlari, tijorat banklari, sug'urta tashkilotlari va yirik soliq to'lovchilar toifasiga kiritilgan yuridik shaxslar 2021-yilning 1-yanvaridan boshlab, buxgalteriya hisobi yuritilishini moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS) asosida tashkil etadi va 2021-yil yakunlaridan boshlab, moliyaviy hisobotlarni MHXS asosida tayyorlashga o'tdi. Mazkur qarorda xorijning ilg'or tajribasini hisobga olgan holda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini va mazkur sohada kadrlar tayyorlashning zamonaviy usullarini bosqichma-bosqich joriy etish bo'yicha "Yo'l xaritasi" ishlab chiqildi [4].

Ushbu qarorning ahamiyatli jihatlardan biri shuki, bu MHXS hujjatlarini O'zbekiston Respublikasida tan olinish masalasini hal qilib berdi. Xususan, "Yo'l xaritasi"da belgilangan birinchi vazifa MHXS va unga tushuntirishlar matnlarini tarjima qilish yakunlandi va Moliya vazirligining "O'zbekiston Respublikasi hududida qo'llash uchun moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari va unga tushuntirishlar matnini tan olish to'g'risida"gi 1087-son buyrug'i qabul qilindi. Hujjatga muvofiq O'zbekiston Respublikasi hududida 60 dan ziyod MHXS va ularga tushuntirishlar matni qo'llaniladi. Endilikda, MHXS hujjatlarining tan olinishi va uni qo'llaydigan kompaniyalarning belgilab berilishi, ushbu kompaniya hisobchi va moliya mutaxassislaridan o'z malakasi ustida doimiy ishlashi va mas'uliyatni jiddiy his etishini talab etadi.

Shuningdek, "Yo'l xaritasi"ga asosan, Buxgalteriya hisobining milliy standartlarini MHXSga uyg'unlashtirishni hisobga olgan holda ularni takomillashtirish talab etadi. Buning uchun quyidagi muhim vazifalar belgilab olindi:

- *Xalqaro ekspertlarni jalb qilgan holda buxgalteriya hisobining milliy standartlari va MHXS o'rtasidagi muhim farqlanishlar bo'yicha keng qamrovli axborotlar tayyorlash;*

- *Buxgalteriya hisobining yangi milliy standartlarini ishlab chiqish va amaldagi standartlarga o'zgartirishlar kiritish.*

Demak, MHXS talablari asosida amaldagi buxgalteriya hisobi milliy standartlariga o'zgartirishlar kiritish yoki yangi standartlarni ishlab chiqish eng dolzarb masalalardan biriga aylandi.

BUXGALTERIYA HISOBI VA AUDIT

Shuni unutmaslik kerakki, moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tishda qiyinchiliklar bo'lishi tabiiy holat. Eng muhimi, ushbu qiyinchiliklar ortidan erishiladigan foydali jihatlarni tasavvur qilish muhim sanaladi.

MHXSga o'tishning so'nggi yillardagi Yevropa, qolaversa, jahon tajribasiga asoslanib, quyidagi ijobiy jihatlarni kuzatish mumkin (1-rasm):

| | |
|---|--|
| Axborot shaffofligini oshirish | •shaffoflik xususiyati sifatli moliyaviy axborot va xalqaro darajada qiyoslanuvchanlikni ta'minlaydi. Buning natijasida investorlar va boshqa bozor qatnashchilari asoslangan iqtisodiy qarorlar qabul qilish imkoniyatiga ega bo'ladi. |
| Kapital bozorlarining rivojlanishi va qimmatli qog'ozlar bozorlarida savdolar ko'lamining kengayishi | •kapital bozorlarining rivojlanishi va qimmatli qog'ozlar bozorining mamlakat ichida shakllanishi va savdolar ko'payishi iqtisodiy rivojlanishning jadallashtirish omili hisoblanadi. Bunda MHXS asosidagi hisobot ma'lumotlari kapital bozor ishtirokchilari uchun asosiy va ishonchli axborot manbasi bo'lib xizmat qiladi |
| Iqtisodiy samaradorlik oshishi | •bu xususiyat investorlar va kompaniya boshqaruvchilari o'rtasidagi moliyaviy axborot yetishmovchiligini kamaytiradi. Natijada investorlar o'z sarmoyalarining samarali boshqaruvi bo'yicha to'laqonli axborotga ega bo'ladi. |
| Hisobdorlik oshishi | •bu xususiyat investorlar va kompaniya boshqaruvchilari o'rtasidagi moliyaviy axborot yetishmovchiligini kamaytiradi. Natijada investorlar o'z sarmoyalarining samarali boshqaruvi bo'yicha to'laqonli axborotga ega bo'ladi. |
| Bozor likvidligi yaxshilanishi va kapital sarfining pasayishi | •moliyaviy axborotlarning batafsil yoritilishi va xalqaro darajada qiyoslanuvchanlik bozor likvidligini oshiradi va kompaniyalar uchun milliy va xorijiy kapital jalb etish sarflarini kamaytiradi. |
| Xorijiy investitsiyalarning milliy bozorga kirib kelishi va investorlarni himoya qilishning takomillashishi | •milliy bozorda xorijiy investorlarga ijobiy investitsiya muhiti yaratilishi hamda investorlar huquqlari himoyalangan bo'lishi lozim. MHXSning kapital bozor qatnashchilari tomonidan qabul qilinishi va unga muvofiq tuzilgan moliyaviy hisobotlar ochiq e'lon qilinishi ushbu jarayonlarni tezroq amalga oshirish imkoniyatini beradi. |
| Moliyaviy tahlilchilar prognozlaridagi aniqlik | •moliyaviy axborotning sifati va qiyosiylikni ta'minlaydigan muhit moliyaviy tahlilchilar faoliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi va prognozlash tahlillari sifatini oshiradi. Ushbu tahlillar kapitalning samarali boshqaruvi va kelgusida kapital jalb etilishi yoki taqsimlanishi bo'yicha to'g'ri iqtisodiy qarorlar qabul qilinishiga xizmat qiladi. |

1-rasm. MHXSga o'tishning ijobiy jihatlari

Manba: muallif ishlanmasi.

Fikrimizcha, yuqorida keltirilgan ijobiy jihatlarga mos ravishda, quyidagi MHXSga o'tish natijasida erishiladigan amaliy afzalliklarga ega bo'lishimiz mumkin:

➤ *Aktivlarni baholashning bozor mexanizmlari* – bunda aktivlar va majburiyatlarning boshlang'ich qiymati va uning joriy bozor qiymatidan foydalanish ham investor, ham tashkilotning o'zi uchun samarali qarorlar qabul qilish imkoniyatini yaratadi;

➤ *Moliyaviy instrumentlarni qo'llashning quyiligi* – Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarida zamonaviy biznes yo'nalishlari va operatsiyalarni aks

ettirish usullarini yetarli darajada tez-tez qayta ko'rib chiqilishi iqtisodiy subyektlarning moliyaviy instrumentlardan foydalanish imkoniyatlarini oshiradi;

➤ *Aktivlar qadrsizlanishini o'z vaqtida aks ettirish* – amaldagi buxgalteriya hisobining milliy standartlari aktivlar qadrsizlanishi riski bo'yicha choralar ko'rishni talab etmaydi. Shu tufayli, yirik kompaniyalarda aktivlar summasining oshirib ko'rsatilish riskini yuzaga keltiradi. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari bunday risklarning oldi olinishi uchun zaruriy talablarni qo'yadi;


➤ *Shartli aktiv va baholangan majburiyatlar bo'yicha aniq ko'rsatmalar* – foydalanuvchilarning to'g'ri va aniq qaror qabul qilishlari uchun nafaqat hujjatlarga asoslangan operatsiyalar to'g'risidagi axborotlar, balki kelajakda sodir bo'lishi mumkin bo'lgan hodisalar oqibatini joriy hisobotlarda aks ettirish ham muhim ahamiyat kasb etadi;

➤ *Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotlar tuzish* – ko'pchilik yirik kompaniyalar o'zining tarkibiga kiruvchi korxonalarni hisobga olgan holda jamlama hisobotlarni tuzmoqda, lekin ularni tuzishda zamonaviy konsolidatsiyalash mexanizmlarini hisobga olmasligi, ushbu kompaniyalar guruhining haqiqiy ahvoli ko'rinmay qolishiga sabab bo'lmoqda. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari bo'yicha konsolidatsiyalashgan hisobot moliyaviy hisobotning alohida maxsus tarkibiy qismi hisoblanadi va unga nisbatan maxsus talablar mavjud.

Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini joriy qilish bo'yicha olib borilayotgan amaliy ishlar

jadal sur'atlarda amalga oshirilayotgan bo'lsa-da, shu bilan birgalikda bu jarayonda bo'y cho'zib kelayotgan qiyinchiliklarni ham birdek ta'kidlash va tahlil qilish lozim.

Shunga asosan, xalqaro standartlarni mamlakatimiz hisob tizimiga joriy qilishning qanday oqibatlari bizni kutib turganini yaxshilab his qilmog'imiz zarur. Birgina hozirgi kunda kadrlash yetishmovchiligi yoki o'qitish qiymatining yuqoriligi, moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish ancha yillar talab qilishi hamda ko'plab resurslar va imkoniyatlarini talab qilishi ma'lum bo'lib ulgurgan. Bunday jarayonning boshlanishi ekanligini e'tiborga olib hamda bunday qiyinchiliklar uning ustunlik tomonlarini inkor etolmasligini hisobga olgan holda, quyidagi taxminiy oqibatlarni sanab o'tishimiz va to'g'ri yo'nalishda tegishli xulosalar chiqarishimiz uchun juda zarur hisoblanadi (2-rasm).



2-rasm. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarni O'zbekiston Respublikasi hisob amaliyotiga joriy qilishning oqibatlari

Manba: muallif ishlanmasi.

Muxtasar aytganda, MHXSga o'tish va MHXSni belgilangan tashkilotlar tomonidan muvaffaqiyatli tatbiq etish nafaqat kompaniya istiqbolini ta'minlaydi, balki butun iqtisodiyot tarmoqlari rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Buni amalga oshirish uchun oldimizda turgan vazifalar va qiyinchiliklarni samarali va belgilangan muddatlarda hal etilishi lozim.

Ammo umumiy iqtisodiyotdagi ayrim muammolar va huquqiy asoslarning yetarli emasligi MHXSga o'tish bo'yicha olib borilayotgan ishlar rivojiga salbiy ta'sir ko'rsatayotganini ham alohida ta'kidlab o'tish joizdir.

Operatsiyalar va boshqa hodisalarning mohiyati har doim ham ularning huquqiy shaklidan kelib chiqadigan narsaga mos kelmaydi.[12] Shu sababdan ham, moliyaviy hisobotdagi ma'lumotlar bitimlar va boshqa hodisalarni to'g'ri aks ettirishi kerak, shuning uchun ular nafaqat huquqiy shaklga, balki ularning mohiyatiga va iqtisodiy haqiqatiga muvofiq hisobga olinishi va taqdim etilishi kerak. Xususan, o'tgan 2022- yilda O'zbekistondagi eng yirik ishlab chiqaruvchilardan biri bo'lgan "UzAuto Motors" aksiyadorlik jamiyati o'z aksiyalarini IPO orqali ichki investorlar uchun sotishni rejalashtirgan edi. Dastlab, "UzAuto Motors" AJ aksiyalar paketining 10 foizgacha qismini mahalliy fond bozorida ommaviy joylashtirish ko'zda tutilgan edi. Keyinchalik IPOga chiqariladigan aksiyalar paketining 5 foiziga, yakunda esa 1 foizgacha qisqartirildi. Shu o'rinda, 2020-yildan buyon "UzAuto Motors" O'zbekistondagi eng yirik soliq to'lovchilar o'nligidan joy oldi.

Kompaniyaning ishlab chiqarish hajmi so'ngi 5 yilda 2,4 barobarga, sof foyda esa 3,4 barobarga oshirildi [14]. Shunday istiqbolli, yuqori rentabellikka ega bo'lgan ishlab chiqaruvchining IPO doirasida jamiyat aksiyalarini xarid qilish uchun 1383 ta talabnoma kelib tushdi. Bu esa sotilayotgan aksiyalar umumiy hajmining 29,1 foizini tashkil etdi. Ko'rinib turganidek, milliy avtomobil ishlab chiqaruvchisining aksiyalariga talab kutilganidan ancha past bo'ldi.

Savdolar boshlanishidan biroz avvalroq, "Fitch Rating" xalqaro reyting agentligi tomonidan "UzAuto Motors" aksionerlik jamiyatining kredit reytingi "B+" (Barqaror kutilma)dan BB- (Barqaror kutilma)ga ko'tarilgan edi [15].

Shu o'rinda tabiiy savol tug'iladi. Kompaniyaning moliyaviy rentabellik darajasi yuqori, ijobiy kredit reytingga ega bo'lgan bo'lsada, nima uchun

"UzAuto Motors" aksiyalarining xarid qilish uchun kutilgan talab bo'lmadi? Javobi shuki, kompaniyaning haqiqiy moliyaviy hisobotlari ochiq qolmaydi. "UzAuto Motors" aksionerlik jamiyati bir qator ochiq va yopiq imtiyozlar, subsidiyalardan foydalanib keladi, hatto to'g'ridan-to'g'ri majburiyati bo'lgan utilitatsiya yig'imini to'layotgani yoki to'lama-yotgani haqidagi muhim moliyaviy ma'lumot ko'rsatkichlari mavjud emas. Potensial investorlar uchun esa bu kabi moliyaviy ko'rsatkichlardan xabardor bo'lish muhim sanaladi. Shu jihatdan, moliyaviy holatning noaniqligi investorlar tomonidan kompaniya aksiyalariga bo'lgan qiziqishni kamaytirgan deb aytish mumkin.

Xulosa va takliflar. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tishning dolzarbligi, ijobiy jihatlari va afzalliklarini hamda oqibatlarini tahlil qilish hamda nazariy-uslubiy jihatlarni tadqiq qilish natijasida quyidagi xulosalarni berish mumkin:

birinchi, korxonalarda moliyaviy hisobotlarni tayyorlashda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini qo'llash, uning ahamiyati va zarurati o'rganish, nazariy-uslubiy jihatlarni tadqiq qilish orqali ushbu moliyaviy hisobotlardan foydalanuvchilar, asosan, investorlarni jalb qilishda ustuvorlikka ega ekanligi hamda shaffof va to'liq ochib berilgan ma'lumotlar to'plamini taqdim etilishi va ishonchli manba bo'lib xizmat qilishini alohida ta'kidlab aytish zarur;

ikkinchi, mamlakat miqyosida moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini joriy etishda eng kerakli resurs bu kadrlar hisoblanadi. Shu sababdan, kadrlar tayyorlash tizimini tezkor ravishda ishlab chiqish va dasturiy ta'minotga o'zgartirish kiritish uchun mavjud va qo'shimcha resurlardan keng foydalanish maqsadga muvofiqdir;

uchinchi, milliy buxgalteriya hisobini MHXSning prinsip va talablariga mos holda keltirish bo'yicha islohotlarni davom ettirish jarayonida amaldagi me'yoriy huquqiy hujjatlarga, buxgalteriya hisobining milliy standartlariga zaruriy o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish, xususan, nizomlar, yo'riqnomalar va qoidalarni ham standartlarga aylantirishimiz kerak;

to'rtinchidan, MHXSni qabul qilish va uni qo'llashda hisob tizimidan tashqari, moliya, pul-kredit, soliq va mehnat qonunchiligini hamda kapital bozorini o'zaro uyg'unlikda ta'minlash zarur.

Manba va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 404-sonli qaroriga asosan yangi tahrirdagi "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonun, 13.04.2016 yil, 22-modda // lex.uz
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-1438 sonli "2011-2015 yillarda respublika moliya-bank tizimini yanada isloh qilish va barqarorligini oshirish hamda yuqori xalqaro reyting ko'rsatkichlariga erishishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risida"gi qarori, 26.11.2010 yil, // lex.uz
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-4720-sonli "Aksiyadorlik jamiyatlarida zamonaviy korporativ boshqaruv uslublarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni, 24.04.2015 yil, // lex.uz
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4611 sonli "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" qarori, 24.02.2020-yil // lex.uz

5. Karimov A.A., Ibragimov A.K., Rizayev N.K., Imamova N.M. *Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari*, Darslik, - T.:2021, 332 b.
6. Fredrick D.S. Choi & Gary K. Meek (2005) *International Accounting*, Pearson Prentice Hall, Upper Saddle River, pp.4-18
7. Emmanuel T. De George, *A Review of the IFRS Adoption Literature*, [Review of Accounting Studies, Forthcoming](#), 24.09.2015, page 118
8. J. Gordon, *International financial reporting standards – explained*, 2022
9. Irvine, H., & Lucas, N. *The Globalization of Accounting Standards*. Working paper, 3rd International Conference on Contemporary Business, 2006
10. Paanamen, M., & Lin, H. *The Development of Accounting Quality of IAS and IFRS over Time: The case of Germany*. *Journal of International Accounting Research*, 2009, 31-55 p.
11. Latifah, I., Asfadillah, C., & Sukmana, R. *History and Development of IFRS and AAOIFI and Their Future Challenge*. Working paper, Cambridge Business and Economics Conference, Cambridge University, UK, 2012
12. Teterleva A.S. *Mejdunarodnye standarty finansovoy otchetnosti: uchebnoye posobiye*. - Yekaterinburg: Izd. Ural. un-ta, 2016, str. 10.
13. AICPA, IFRS FAQs, www.ifrs.com
14. https://uzautomotors.com/articles/mdhdagi_eng_yirik_avtomobil_ishlab_chiqarish_ipo
<https://www.fitchratings.com/research/corporate-finance/fitch-upgrades-jsc-uzauto-motors-to-bb-outlook-stable-13-12-2022>



РАҚАМЛИ ИҚТИСОДИЁТ ШАРОИТИДА МОЛИЯВИЙ НАТИЖАЛАРНИ ТАВСИФЛОВЧИ КЎРСАТКИЧЛАР МОДЕЛИ

*Эшбекова Зилола Турғунбоевна -
Тошкент давлат иқтисодиёт университети
докторанти*

doi.org/10.55439/ECED/vol24_iss3/a24

Аннотация. Мақола рақамли иқтисодиёт шароитида молиявий натижаларни тавсифловчи кўрсаткичлар моделига бағишланган бўлиб, бугунги кундаги долзарб бўлган рақамли иқтисодиёт, молиявий натижалар тўғрисида ўзаро боғлиқ тадқиқот олиб борилган. Шунингдек, иқтисодий адабиётлар доирасида молиявий натижа тушунчасининг моҳияти ўрганилган бўлиб, молиявий натижанинг хўжалик юритувчи субъектлар фаолиятидаги аҳамияти очиб берилган.

Калит сўзлар: фойда, соф фойда, маржа, харажат, рентабеллик, молиявий натижа, рақамли иқтисодиёт.

МОДЕЛЬ ПОКАЗАТЕЛЕЙ, ХАРАКТЕРИЗУЮЩИХ ФИНАНСОВЫЕ РЕЗУЛЬТАТЫ В ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКЕ

*Эшбекова Зилола Турғунбоевна -
Докторант Ташкентского государственного
экономического университета*

Аннотация. Статья посвящена модели показателей, характеризующих финансовые результаты в условиях цифровой экономики, и проведено соответствующее исследование цифровой экономики и финансовых результатов, актуальных на сегодняшний день. Также в рамках экономической литературы изучена сущность понятия финансового результата, выявлено значение финансового результата в деятельности хозяйствующих субъектов.

Ключевые слова: прибыль, чистая прибыль, маржа, себестоимость, рентабельность, финансовый результат, цифровая экономика.

A MODEL OF INDICATORS CHARACTERIZING FINANCIAL RESULTS IN THE DIGITAL ECONOMY

*Eshbekova Zilola Turgunboevna -
Tashkent State University of Economics, PhD student*

Abstract. The article is devoted to the model of indicators characterizing financial results in the conditions of the digital economy, and an interrelated research was conducted on the digital economy and financial results, which are relevant today. Also, the essence of the concept of financial result was studied within the framework of economic literature, and the importance of financial result in the activity of economic entities was revealed.

Keywords: profit, net profit, margin, cost, profitability, financial result, digital economy.

Кириш. Дунё тобора ўзаро боғланган ва технологияга асосланган бўлиб борар экан, рақамли иқтисодиёт глобал бизнес майдонларини шакллантиришда устун куч сифатида пайдо

бўлди. Анъанавий молиявий кўрсаткичлар энди ушбу динамик муҳитда фаолият юритаётган корхоналарнинг самарадорлиги ва муваффақиятини баҳолаш учун етарли эмас. Бунинг ўрнига